

Oltinsoy tumanida kasb-hunarga o'qitish Markazida Uchastka saylov komissiyalari raisi, o'rribosar va kotibligiga nomzodlar uchun seminar treninglar davom etmoqda



Saylov – 2021. Oltinsoy tumanida kasb-hunarga o'qitish Markazida Uchastka saylov komissiyalari raisi, o'rribosar va kotibligiga nomzodlar uchun seminar treninglar davom etmoqda

Joriy yil 24 oktabrda bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish maqsadida saylov jarayoni ishtirokchilarini saylov qonunchiligi bo'yicha o'qitishni tashkil etish uchun joriy yil 16 avgustdan 12 sentabrgacha USK raisi, rais o'rribosari va kotiblarini interaktiv usullarda saylov qonunchiligi bo'yicha o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

Navbatdagi seminar treninglar Oltinsoy tumanida joylashgan Oltinsoy kasb-hunarga o'qitish Markazida davom etmoqda. Ushbu o'quvlar 4 ta pog'onada tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirda 3-pog'onasi bo'lib o'tmoqda.

Interaktiv darslar ko'rinishida olib borilayotgan seminar treninglar yakuni bo'yicha har bir tinglovchi maxsus ta'lim platformasida onlayn tarzda test sinovlarini topshiradilar.